

MALAKA VA INTIZOM KOMISSIYALARINI INSTITUTSIONAL JIHATDAN AJRATISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Aliyeva Farangiz Rashidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura talabasi

E-mail: farangizaliyeva1402@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tizimida malaka va intizom komissiyalarining vakolatlarini institutsional jihatdan ajratish masalasi ilmiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot amaldagi normativ-huquqiy asoslar, qiyosiy-huquqiy yondashuv hamda sotsiologik so‘rov natijalari asosida amalga oshirilgan. Muallif advokatlik kasbiga qabul qilish va intizomiy nazorat funksiyalarining bitta organ doirasida jamlanishi manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishini asoslab, vakolatlarni aniq ajratishga qaratilgan yangi institutsional modelni taklif etadi. Shuningdek, Konferensiya chaqiruv davriyligini ikki yil etib belgilash, delegatlarni proportsionallik prinsipi asosida saylash hamda Oliy malaka komissiyasi tarkibiga qo‘yiladigan talablarni normativ jihatdan mustahkamlash yuzasidan aniq takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: advokatura, malaka komissiyasi, intizom komissiyasi, vakolatlar taqsimoti, o‘zini o‘zi boshqarish, Konferensiya, proportsionallik prinsipi, institutsional mustaqillik, boshqaruv islohoti.

Аннотация: В данной статье проводится научно-правовой анализ проблемы институционального разграничения полномочий квалификационных и дисциплинарных комиссий в системе Палаты адвокатов Республики Узбекистан. Исследование основано на анализе действующей нормативно-правовой базы, сравнительно-правовом подходе, а также результатах социологического опроса. Автор обосновывает, что совмещение функций допуска к профессии адвоката и дисциплинарного

контроля в рамках одного органа приводит к конфликту интересов, и предлагает новую институциональную модель, направленную на четкое разграничение полномочий. Кроме того, выдвигаются предложения по установлению двухлетней периодичности созыва Конференции, введению пропорционального принципа формирования делегатов, а также нормативному закреплению требований к составу Высшей квалификационной комиссии.

Ключевые слова: адвокатура, квалификационная комиссия, дисциплинарная комиссия, распределение полномочий, самоуправление, Конференция, принцип пропорциональности, институциональная независимость, реформа управления.

Abstract: *This article provides a scientific and legal analysis of the issue of institutional separation of powers between qualification and disciplinary commissions within the Chamber of Advocates of the Republic of Uzbekistan. The study is based on the analysis of the current regulatory framework, a comparative legal approach, and the results of a sociological survey. The author substantiates that combining the functions of admission to the legal profession and disciplinary control within a single body leads to a conflict of interest, and proposes a new institutional model aimed at clearly separating these powers. In addition, the article offers proposals to establish a biennial frequency for convening the Conference, introduce a proportional system for electing delegates, and normatively define requirements for the composition of the Higher Qualification Commission.*

Keywords: *advocacy, qualification commission, disciplinary commission, distribution of powers, self-governance, Conference, principle of proportionality, institutional independence, governance reform.*

Demokratik huquqiy davlat sharoitida advokatura institutining samarali faoliyat yuritishi fuqarolarning malakali yuridik yordam olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini ta’minlash bilan bir qatorda, odil sudlov tizimining muhim institutsional kafolati sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Advokatlar palatasining boshqaruv tizimi advokatura institutining barqarorligi va mustaqilligini ta’minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining amaldagi tashkiliy-huquqiy modeli qator murakkab institutsional muammolar bilan tavsiflanadi. Xususan, advokatlik kasbiga qabul qilish, malaka darajasini baholash hamda intizomiy ishlarni ko‘rib chiqish vakolatlarining yagona organ malaka komissiyalari doirasida jamlanganligi tizimli ziddiyatlarni yuzaga keltirmoqda. Bunday vakolatlar konsentratsiyasi zamonaviy boshqaruv nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan vakolatlar bo‘linishi prinsipiga mos kelmaydi.

Amaliy ma’lumotlar ham ushbu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi. Jumladan, 2017–2019-yillar davomida hududiy malaka komissiyalari tomonidan ko‘rib chiqilgan 2206 ta ishning 803 tasi malaka imtihonlariga, 930 tasi esa intizomiy masalalarga oid bo‘lgan¹. Bu esa bitta organ tomonidan bir vaqtning o‘zida ham advokatlik kasbiga qabul qilish, ham kasbiy faoliyat ustidan nazoratni amalga oshirish holatini yuzaga keltirib, manfaatlar to‘qnashuvi xavfini kuchaytiradi.

¹ Davlyatov V.H. Advokatura institutini takomillashtirishda advokatlik tuzilmalari va o‘zini o‘zi boshqarish organining huquqiy maqomi masalalari: yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2020 80 b.

Mazkur holatdan kelib chiqib, ushbu maqolada quyidagi ilmiy savollarga javob izlanadi: *birinchidan*, malaka va intizom komissiyalari vakolatlarini ajratishning huquqiy asoslari qanday; *ikkinchidan*, xorijiy davlatlar amaliyotida ushbu vakolatlar qanday tarzda taqsimlangan; *uchinchidan*, O‘zbekiston sharoitida eng maqbul institutsional model qanday bo‘lishi mumkin.

Huquqshunos S.A. Dexanov advokatlar birlashmalarida boshqaruv funksiyalarining institutsional jihatdan ajratilishi professional o‘zini o‘zi boshqarish tizimining yetuklik darajasini belgilovchi muhim mezonlardan biri ekanini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlagan holda, R. Abel advokatura institutining asosiy vazifasi kasb mustaqilligini ta’minlash faqat boshqaruv organlari o‘rtasida o‘zaro tiyib turish (checks and balances) mexanizmi mavjud bo‘lgan sharoitda samarali amalga oshirilishini asoslaydi².

Xalqaro huquqiy standartlar ham mazkur yondashuvni mustahkamlaydi. Jumladan, BMTning “*Advokatlar roliga oid asosiy prinsiplar*” hujjatida advokatlarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati shaffoflik, hisobdorlik va demokratiklik tamoyillari asosida tashkil etilishi zarurligi belgilangan. Xalqaro Advokatlar Assotsiatsiyasi (IBA) tomonidan ishlab chiqilgan standartlarga ko‘ra esa advokatlik kasbiga qabul qilish va intizomiy nazorat funksiyalari o‘zaro mustaqil organlar tomonidan amalga oshirilishi lozim.⁵

Milliy qonunchilikda “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasi hamda Advokatlar palatasi Ustavining 46-bandi malaka komissiyalarining vakolatlarini belgilab beradi. Biroq ushbu normalar mazmunan turlicha bo‘lgan ikki funktsiyani kasbiy baholash va intizomiy nazoratni bitta organda jamlagan. Bu

² Abel R., Lewis P.S.C. (eds.). *Lawyers in Society: An Overview*. – Berkeley: University of California Press, 1995. SJIF: 5.051

esa boshqaruv nazariyasida e'tirof etilgan vakolatlar bo'linishi tamoyiliga zid holatni yuzaga keltiradi.

Konstitutsiyaviy-huquqiy doktrinaga ko'ra, "manfaatlar to'qnashuvi" (conflict of interest) bir organ bir vaqtning o'zida qarama-qarshi funksiyalarni bajarganida yuzaga keladi va bu qarorlarning xolisligi hamda ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur prinsip AQSh sud etikasi qoidalari (U.S. Code of Judicial Conduct) hamda Yevropa Kengashining advokatlar etikasi standartlarida³ ham o'z aksini topgan.

Tahlillar ham ushbu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, 2022–2023-yillarda o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 41,7 foizi (646 nafar advokat) malaka komissiyalari tarkibini shakllantirish tartibidan qoniqmasligini yoki bu borada aniq fikrga ega emasligini bildirgan. Shu bilan birga, 50,7 foiz respondent (811 nafar)⁴ malaka imtihonlari jarayonida qaror qabul qilish yetarli darajada shaffof emasligini qayd etgan.

Mazkur holatlar malaka va intizomiy vakolatlarni institutsional jihatdan ajratish zarurati nafaqat nazariy, balki amaliy ehtiyoj ekanini ko'rsatadi.

Vakolatlarni institutsional jihatdan ajratish masalasida xorijiy tajriba ancha tizimli va izchil yondashuvni namoyon etadi. Xususan, AQSh amaliyotida advokatlik faoliyati ustidan nazorat va kasbga qabul qilish funksiyalari alohida organlar vakolatiga yuklatilgan: intizomiy ishlar advokatura organlari huzuridagi maxsus komissiyalar tomonidan ko'rib chiqilsa, advokatlik kasbga qabul qilish

³ Council of Bars and Law Societies of Europe (CCBE). Code of Conduct for European Lawyers, 2019. Article 2.1.

⁴ Davlyatov V.H. Advokatura institutini takomillashtirishda advokatlik tuzilmalari va o'zini o'zi boshqarish organining huquqiy maqomi masalalari: yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2020

jarayoni mustaqil imtihon organlari Bar Examination Boards orqali amalga oshiriladi.⁵

Shunga o'xshash yondashuv Germaniya huquqiy tizimida ham kuzatiladi. Bu yerda advokatlar faoliyati ustidan intizomiy nazorat advokatlar sudi (Anwaltsgericht) tomonidan amalga oshirilib, u ko'p bosqichli (uch instansiyali) va institutsional jihatdan mustaqil tizim sifatida faoliyat yuritadi.⁶

MDH davlatlari tajribasi ham ushbu yo'nalishda izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi. Xususan, Armaniston va Qozog'iston qonunchiligida malaka va intizom komissiyalari alohida tashkil etilgan bo'lib, bu vakolatlar bo'linishi tamoyilining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, delegatlar saylashda proportsionallik prinsipi ham rivojlangan advokatura tizimlariga xos xususiyat hisoblanadi. Germaniyada hududiy advokatlar palatalari vakilligi advokatlar soniga mutanosib ravishda belgilanadi va bu federal darajadagi qarorlar legitimligini ta'minlashga xizmat qiladi. Fransiyada esa Milliy advokatlar kengashi (Conseil National des Barreaux) tarkibini shakllantirishda hududiy advokatlar soni asosiy mezon sifatida olinadi.⁷

Mazkur qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, vakolatlarni ajratish va proportsional vakillik tizimini joriy etish advokatura institutining mustaqilligi, shaffofligi hamda samaradorligini ta'minlovchi muhim institutsional omillar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining amaldagi boshqaruv tizimi tahlili uning faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

⁵ American Bar Association. Model Rules for Lawyer Disciplinary Enforcement. — Chicago: ABA, 2020.

⁶ Bundesrechtsanwaltsordnung (BRAO). § 92–97 (Anwaltsgericht).

⁷ BRAK Geschäftsbericht 2022. — Berlin: Bundesrechtsanwaltskammer, 2023.

Birinchidan, vakolatlarning bir organ doirasida jamlanishi kuzatiladi. Xususan, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasiga muvofiq malaka komissiyalari bir vaqtning o‘zida advokatlik kasbiga qabul qilish, malaka imtihonlarini o‘tkazish, intizomiy ishlarni ko‘rib chiqish hamda advokat maqomini to‘xtatib turish masalalarini hal etadi. Bunday yondashuv bir organning ayni shaxsga nisbatan ham “baholovchi”, ham “nazorat qiluvchi” rolini bajarishiga olib kelib, klassik manfaatlar to‘qnashuvi holatini yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, ayrim boshqaruv organlarining huquqiy maqomi yetarli darajada normativ mustahkamlanmagan. Jumladan, Taftish komissiyasining tarkibi, vakolat muddati va hisobdorlik mexanizmlari qonun darajasida emas, balki ustav normalari bilan tartibga solingan. Amaliy misollar ham bu muammoning dolzarbligini ko‘rsatadi: moliyaviy faoliyatda tushum va xarajatlar o‘rtasidagi tafovutlar nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligini anglatadi.¹⁷

Uchinchidan, Konferensiyaning chaqirilish davriyligi boshqaruv samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Besh yillik oraliq advokatlar hamjamiyatida dolzarb masalalarni tezkor muhokama qilish va boshqaruv organlari faoliyati ustidan muntazam nazoratni ta‘minlash imkonini cheklaydi. Ayniqsa, huquqiy islohotlar jadallashgan sharoitda bunday uzoq davriylik zamonaviy boshqaruv talablariga mos kelmaydi.

To‘rtinchidan, delegatlar saylash tizimida proportsionallik prinsipi ta‘minlanmagan. Amaldagi tartibga ko‘ra har bir hududdan teng miqdorda delegatlar saylanishi hududlar o‘rtasidagi advokatlar soni keskin farqlanishini inobatga olmaydi. Natijada yirik hududlar va advokatlar soni kam bo‘lgan

hududlar teng vakillikka ega bo‘lib, bu Konferensiya qarorlarining demokratik legitimligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Mazkur holatlar advokatlar palatasining boshqaruv tizimini institutsional jihatdan qayta ko‘rib chiqish va uni zamonaviy demokratik boshqaruv tamoyillari asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Advokatlar palatasi boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi normativ-huquqiy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, vakolatlarni institutsional jihatdan aniq ajratish zarur. “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali malaka komissiyalarining vakolatlarini advokatlik kasbiga qabul qilish, malaka imtihonlarini o‘tkazish va kasbiy darajani baholash bilan cheklash, intizom komissiyalariga esa nazorat va javobgarlik choralari qo‘llash funksiyalarini yuklash lozim. Shu bilan birga, Oliy malaka komissiyasi a‘zolarining Boshqaruv tarkibida bir vaqtning o‘zida faoliyat yuritishini taqiqlovchi norma joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, Advokatlar palatasi Konferensiyasining huquqiy maqomini mustahkamlash zarur. Shu maqsadda qonunga alohida modda kiritilib, Konferensiyaning kamida ikki yilda bir marta chaqirilishi, shuningdek, advokatlarning kamida o‘n foizi tashabbusi bilan uni navbatdan tashqari chaqirish imkoniyati belgilanishi lozim.

Uchinchidan, delegatlar saylashda proportsionallik prinsipini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa vakillikning adolatliligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, Boshqaruv organlarini shakllantirishda ochiq va raqobatbardosh nomzodlik tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda

boshqaruv a'zolari faqat delegatlar doirasidan emas, balki barcha advokatlar orasidan saylanishi, nomzodlar esa o'z dasturlari asosida saylovlarda ishtirok etishi lozim. Bu meritokratik va demokratik boshqaruvni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'tkazilgan nazariy-huquqiy va qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining amaldagi boshqaruv tizimida malaka va intizom komissiyalarining vakolatlarini bitta organ doirasida jamlash tizimli muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, bunday yondashuv manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'lib, qarorlar xolisligini pasaytiradi hamda advokatlar hamjamiyatida ishonch darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi esa vakolatlarni institutsional ajratish advokatura tizimining mustaqilligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlashning muhim sharti ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rivojlangan advokatura tizimlarida oliy boshqaruv organlarining muntazam chaqirilishi va vakillikning proporsional asosda shakllantirilishi demokratik boshqaruvning ajralmas elementi sifatida qaraladi.

Umuman olganda, advokatlar palatasining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish advokatura mustaqilligini kuchaytirish, boshqaruv tizimining ochiqligi va hisobdorligini oshirish hamda fuqarolarning malakali yuridik yordam olish huquqini yanada samarali ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda advokatura institutining moliyaviy mustaqilligi, boshqaruv tizimini diversifikatsiya qilish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish masalalarini chuqur o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.*
2. *O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 2-son, 48-modda.*
3. *O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 12-modda.*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi Ustavi. O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi III Konferensiyasining 2018-yil 17-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan, 2018-yil 26-dekabrda Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.*
5. *Abel R., Lewis P.S.C. (eds.). Lawyers in Society: An Overview. – Berkeley: University of California Press, 1995.*
6. *Dexanov S.A. Advokatura v Zapadnoy Yevrope. – Moskva, 2010.*